
Chim ustida hokkey: Farg'onada qizlar o'rtasida O'zbekiston chempionati boshlandi.

Sportni rivojlantirish vazirining 2022 yil 17 oktabrdagi 03/1152-AF-sonli buyrug'iga asosan, 20-25-noyabr kunlari Farg'ona shahridagi "Kimyogarlar" sport majmuasida sportning Chim ustida hokkey turi bo'yicha 2002 yil va undan kichik yoshdagi qizlar o'rtasida O'zbekiston chempionati bo'lib o'tadi.

Mazkur chempionatda Andijon, Namangan, Farg'ona, Xorazm, Buxoro, Samarqand, Yozyovon sport maktabi jamoalari ishtirok etishmoqda. Har bir jamoadan 18 nafardan ishtirokchi kelgan musobaqada jami 150 nafarga yaqin sportchi qizlar g'oliblik uchun baxs olib borishadi.

2022-11-21 20:26:59